

Mol chiqsa, odam o'zgarar, qilsa tovuqday galgal.[8]

Zavqiy bu yerda pul topgach, do'stlik va insoniylikni unutgan odam obrazini tasvirlaydi. Shoir jamiyatdagi yolg'on do'stlik, manfaatparastlik, pulga qul bo'lish kabi illatlarni tanqid qiladi. "Tovuqday galgal" – bu kinoya bilan aytilgan ibora bo'lib, insonning tuban xatti-harakatlarini ifodalaydi.

Ko'rib turganimizdek Qo'qon adabiy muhiti juda boy bo'lib, adiblar Amir Umarxon davrida ayniqsa juda keng taraqqiy topgan. Hajv va tanqidiy yo'nalish rivojlangan va iltimoiy nohaqliklarni tanqid qiluvchi hajviy asarlar keng yoyilgan. Qo'qon adabiy muhiti o'zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy va Zavqiy kabi adiblarning asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, o'zbek adabiyotining tanqidiy yo'nalishini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ибрат. Фарғона тарихи. – Т.: Камалак, 1992. – Б. 290
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд .Тошкент: "Маънавият", 2000, 59-бет.
3. Gulxaniy. Zarbulmasal. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970.
4. Хўқандлик шоир Зокиржон Фуркатнинг аҳволоти - ўзи ёзгани // Туркистон вилоятининг газети. 1891 , №9.
5. Муқимий. Асарлар. (Нашрга тайёрловчи Ғ.Каримов). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. – Б. 203
6. Zeboxon Qobilova, Filologiya fanlari doktori, professor "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari antologiyasi" Tamaddun, Toshkent 2022.
7. Muqimiy "Tanlangan asarlar".-Toshkent: Fan nashriyoti, 1980.
8. Zavqiy. She'rlar.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.

TILNING ONOMASTIKA TIZIMINI TASNIFLASH MEZONLARI

Maxsudova Xolisxon Ummatovna

Andijon davlat texnika instituti

Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti

Nomlarning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda, A.V.Superanskaya ularni tasniflashning quyidagi turlarini ajratadi (to'liq deb da'vo qilmagan holda):

- 1) nomlanuvchi obyektlar bilan bog'liq holda tasniflash;
- 2) tabiiy kelib chiqqan va sun'iy ravishda yaratilgan nomlar. Bu tasnif nomlarning ma'nosiga ko'ra tasniflanishi va "rasmiy va norasmiy qo'llanuvchi nomlar" dixotomiyasi bilan chambarchas bog'liq.
- 3) "mikro" - "makro" ko'lami bo'yicha tasniflash;
- 4) nomlarning tarkibiy tasnifi;
- 5) xronologik tasnifi;
- 6) nomlarni ularning motivatsiyasi va unga tutash etimologik tasnifi bilan bog'liq holda, shuningdek, ismlarning apellyativ va nomdoshga, o'z va ko'chma ma'nosiga ko'ra bo'linishi;
- 7) nomlarni ularda ifodalangan tushunchalar mazmuniga ko'ra tasniflash;
- 8) til va nutq dixotomiyasi bilan bog'liq tasniflash;
- 9) stilistik va estetik tasnif.¹

¹ А. В. Суперанская. Общая теория имени собственного. Москва: Наука, 1973. – С. 159

“O‘zbek tili leksikologiyasi” akademik nashrida onomastik birliklar tizimi quyidagicha tasniflangan:

- Antroponimlar (ism, laqab, familiya, ota ismi, patronomik nomlar);
- Toponimlar (quruqlikdagi tabiiy-geografik obyektlar, suvliqdagi tabiiy geografik obyektlar, inson tomonidan yaratilgan obyektlarni nomlari);
- Zoonimlar (hayvon va boshqa xil mavjudotlarga berilgan laqab nomlar);
- Astroponimlar (yulduzlar, sayyoralar va ulardagi kosmik obyektlar, jismlarga, hodisalarga berilgan maxsus nomlar);
- Teonimiya (diniy-mistik tushunchalar, afsonaviy mavjudotlar, xudolar, payg‘ambar, avliyolar, “muqaddas” qadamjoylarga berilgan maxsus nomlar).
- Fitonomiya (fitonimlar - o‘simliklarga berilgan atoqli otlar);
- Xrematonimlar (jonsiz predmetlar - qurollar, qimmatbaho buyumlar, musiqiy asboblarning atoqli otlari);
- Xrononimlar (muayyan tarixiy davrlar, alohida tarixiy kunlar, voqealarning atoqli otlari);
- Dokumentonimlar (tarixiy hujjatlar, qonunlar, aktlar va boshqalarning atoqli otlari);
- Faleronimlar (maxsus mukofotlar, sovg‘alar - ordenlar, medallar, nishonlar, yorliqlar va boshqalarning atoqli otlari);²

Bugungi kunga kelib dunyo tilshunosligida onomastika tizimining bir qadar yangicha yo‘nalishlar bilan boyiganligi bu tasnifning kengaytirilishi va mohiyatan chuqurlashtirilishi zarurligini taqozo etmoqda.

“Vikipediya” axborot manbaida “onim” (nom) tushunchasi bilan bog‘liq 55 ta atama berilgan.³ Bu atamalarning asosiy xususiyati shundaki, ular atoqli otlar turini bildiruvchi tushunchalar sifatida shakllantirilgan bo‘lsa-da, ular orasidagi ierarxik munosabat hisobga olinmagan. Masalan, antroponim (kishi nomlari)larning kriptonom (yashirin nom), psevdonom (taxallus) kabi ichki kichik guruhlar ham umumiy qatorda berilgan. Shuningdek, bu atamalar orasida o‘zbek mentaliteti va tiliga xos bo‘lmagan matronim (onaning nomi bilan atalgan laqab, nom - Annushkin), patronim (otaning nomi bilan atalgan laqab, nom - Nikolaevich), ginekonim (erni xotining ismi, laqabi bilan nomlash - Maryushkin) kabi turlari ham mavjudligi kuzatildi.

E.Begmatov onomastikaning makroko‘lamlarini quyidagicha belgilaydi: antroponim, zoonim, teonim, toponim, kosmonim, fitonim, xrononim, ideonim, anemonim, xrematonim, politonim, ergonim, faleronim, dignitonim, poreyonim, mifonim, anemonim, stratonim, gemeronim (19 ta nomlangan) va “bayramlar, yubileylar va boshqa xil tantanalar, marosimlar atoqli oti”, “ba’zi yirik tarixiy tadbirlar: kompaniyalar, urushlar, harbiy va salb yurishlari va boshqalar atoqli oti”, “siyosiy, mafkuraviy va boshqa xil uyushmalar, jamoalar atoqli oti” (3 ta nomlanmagan) – jami 22 ta .

Bizningcha, ushbu tasnifdagi “bayramlar, yubileylar va boshqa xil tantanalar, marosimlar atoqli oti” turini **geortonim**, “ba’zi yirik tarixiy tadbirlar: kompaniyalar, urushlar, harbiy va salb yurishlari va boshqalar atoqli oti” va “ba’zi yirik tarixiy tadbirlar: kompaniyalar, urushlar, harbiy va salb yurishlari va boshqalar atoqli oti” guruhlarini **politonim** atamasi ostida birlashtirish mumkin. Tasnifdagi xrononim, ideonim, anemonim, xrematonim, politonim, ergonim, faleronim, dignitonim, poreyonim, mifonimlar makroko‘lam emas, mikroko‘lamlar hisoblanadi.

Atamalarni nomlash jarayonida masalaning mohiyatini mos holda ifodalay oladigan, eng qulay va tushunish oson bo‘lgan variantini tanlash zarurati nuqtai nazaridan ideonimga A.V.Superanskaya tomonidan berilgan ushbu ta’rifni maqbul deb hisoblaymiz: “San’at asarlarining nomlari - surat, haykaltaroshlik, filmlar, musiqiy va adabiy asarlar – o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘ziga xos

² Ўзбек тили лексикологияси. Т.: Фан, 1981. – Б. 44

³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Оним>

qatorlarni tashkil qiladi. Olimlar ideonim atamasini insonning ijodiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan yakka obyektlarni belgilash uchun qo‘llaydilar”.⁴

Ideonim – aqliy, g‘oyaviy va badiiy faoliyat sohalariga taalluqli obyektning nomi (san‘at va adabiyot, ilmiy asarlar, ommaviy axborot vositalari va boshqalar nomlari).⁵ Bu jihatdan X.Xamroyevaning doktorlik ishida birmuncha aniqlik kiritilgan:

1. Biblionimlar - badiiy, ilmiy, ommabop yoki muayyan sohaga oid asarlar, qo‘llanma, darslik va lug‘atlar, ya‘ni bosma nashr manbalarining nomlari.

2. Artionimlar – san‘atning barcha turlariga oid atoqli otlar: rang-tasvir va haykaltaroshlik asarlari, kuy, qo‘shiq, raqs, kino, spektakl nomlari kabilar.

3. Xrononimlar - tarixiy voqealar, xalq hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalarning nomlari. Xrononim (yunoncha: *xronvog* - vaqt, *muddat* + *opota* - atoqli ot) - tarixiy davrlar, bosqichlarga oid tushunchalarning atoqli oti hisoblanadi. Masalan, *Uyg‘onish davri*, *Temuriylar davri*, *Mustaqillik davri* kabilar. Tildagi xrononimlar majmui, yig‘indisi *xrononimiya* deb yuritiladi.⁶

4. Geortonimlar – bayramlar, tantana va festivallar, ko‘rgazmalar, sayllar nomlari.

5. Teonimlar – payg‘ambarlar, avliyolar, farishtalar, masjid va ehromlar, muqaddas qadamjolarining nomlari.

6. Mifonimlar - afsonalar, ertaklar, rivoyatlarda, xalq og‘zaki ijodida uchraydigan atoqli otlar.⁷

Ya.I.Avlaqulov ktematonim, dokumentonim, xrononim, geortonim, gemeronim, biblionim, artionim, musiqa san‘ati asarlari atoqli oti guruhlariga tasniflaydi.

Ya.I.Avlaqulov va X.Xamroyevalar tasnifini mantiqiy asosda umumlashtirib, ideonimlarning mikrogruphlarni quyidagicha belgiladik: dokumentonim, xrononim, xrematonim, geortonim, gemeronim, biblionim, artionim, mifonim, teonim. Bunda musiqa san‘ati asarlari nomlarini ham artionimlar tarkibida berish nazarda tutildi

Shu o‘rinda yana bir masalani aytib o‘tish kerakki, E.Begmatovda ham, A.Avlaqulovda ham **xrematonim va ktematonim** atamaları bir ma‘noda qo‘llanganini hisobga olib, xrematonim maqbul variant sifatida tanlandi. Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki, zamonaviy tilshunoslikda reklama matnining asosi bo‘lgan buyum yoki brend nomi “ktematonim” deb nomlanayotgani bois chalkashlik yuz bermasligi uchun ham “xrematonim – moddiy madaniyat obyekti nomi: qurol, musiqa asbobi, zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, idish-tovoqlar (masalan, Yada toshi⁸)”⁹ tavsifi o‘rinli deb hisoblaymiz.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda, o‘zbek tili onomastikasi makroko‘lamlarini quyidagicha belgilashni taklif qilamiz:

antropnim, zoonim, toponim, kosmonim, fitonim, ideonim, geonim, gidronim, anemonim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. B. Суперанская. Общая теория имени собственного. Москва: Наука, 1973. – С. 159
2. Ўзбек тили лексикологияси. Т.: Фан, 1981. – Б. 44
3. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 91.

⁴ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного / А.В.Суперанская. – М.: Наука, 1973. – С. 201-203

⁵ <https://ru.wiktionary.org/wiki/идеоним>

⁶ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 91.

⁷ Хамроева Х. Ўзбек миллий рақс санъати терминлари тадқиқи: филол.фан доктори (DSc) дисс... – Тошкент, 2021. – С. 184

⁸ Авлақулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: филол.фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2012.

⁹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Оним#cite>

4. Хамроева Х. Ўзбек миллий рақс санъати терминлари тадқиқи: филол.фан доктори (DSc) дисс... – Тошкент, 2021. – С. 184
5. Авлақулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: филол.фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2012.
6. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Оним#cite>
7. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Оним>
8. <https://ru.wiktionary.org/wiki/идеоним>

JIYENBAY IZBASQANOV POEZIYASÍNDÁ HOKKULER HÁM ÚSH QATARLÍ QOSÍQLAR

Menglibaeva Shaxsanem Kayratbaevna
Qaraqalpaq Mámleketlik Universiteti magistrantı
Ilmiy basshı: prof. Baxtiyar Genjemuratov

Xalqımızǵa belgili Ózbekstan hám Qaraqalpaqstan xalıq shayı, Berdaq atındaǵı Mámleketlik sıylıqtıń laureatı Jiyenbay Izbasqanovtıń poeziyası bizge ótken ásirdeń ekinshi yarımınan jaqsı tanıs. Onıń heshkimde joq qaytalawlırsız, óz aldına kórkem stilde, joqarı estetikalıq talǵamda dóretken qosıqların búgingi kúńge shekem shayı hám jazıwshılar, ilimpazlardıń izertlew obyektine aylanıp kelmekte. Onı hátte Ózbekstan Qaharmanı, Ózbekstan hám Qaraqalpaqstan xalıq shayı I.Yusupov óz maqalasında: “Jiyenbaydıń taǵı bir unamlı jeri, ol rus klassikalıq lirikasın, ásirese Pushkin, Lermontov, Fet, Tyutchevlardı, sonday-aq, Blok, Pasternak, Cvetaevalardı tıp nusqadan súyip oqıp, olardan úyrenetuǵınlıǵı kórinedi.” – dep atap ótip onıń rus poeziyasın jaqsı meńgergenligin hám onnan nár alıp óz poeziyasın jetilistiretuǵının da keltirip ótedi: “Rus poeziyasın óz tilinde, tıp nusqasında oqıp, onıń terehine súńgıp, onıń óz bulaǵınan qanıp ishiw shayı ushın taptırmas baxıt!”. Haqıyqatında da, insan bulaqtan qanıp suw ishkende, onıń boyına qandayda bir belgisiz kúsh-quwat taraydı. Poeziyada da tap sonday, desek qátelespeymiz. Sebebi, haqıyqiy poeziyanı, onıń hár bir qatarın oqıǵanda estetikalıq talǵamǵa iye insan ǵana ózine ruwxıy azıq ala aladı. J.Izbasqanov mine usınday poeziyası bar shayı edi.

Shayı J.Izbasqanov poeziyası boyınsha ilimpazlar tárepinen bir qatar maqalalar járiyalandı. Q.Jarımbetovtıń “Kóterińki ruwx poeziyası” (“Ustaz jolı”, 2000, 11-oktyabr), J.Esenov “Qardıń appaqlıǵı – kewil pákligi” (“Erkin Qaraqalpaqstan”, 2007, 23-fevral), Q.Orazımbetovtıń “Pikirler aǵımına sıǵasqan lirika” (“Erkin Qaraqalpaqstan”, 2000, 5-oktyabr), P.Nurjanovtıń “Lirika – meniń ómirim, pútın barlıǵım” (“Ustaz jolı”, 2000, 12-oktyabr), D.Saparovnıń “Lirikalıq xarakterdeń bazı bir sıpatlı belgileri (J.Izbasqanov poeziyası mısasında)” (“Ámiwdárya”, 2007, 2-san), A.Dosımbetova “J.Izbasqanov lirikasında gúz obrazı” (“Ámiwdárya”, 2014, 5-san), Z.Qazımbetova “J.Izbasqanov shıǵarmalarında sızıqshanın qoyılıwınıń mánige tási” (“Xabarshı”, 2021, 1-san) hám basqa da maqalalarda shayı poeziyasınıń anaw yáki mınaw ózinshelikleri teoriyalıq kózqarastan úyreniledi.

Belgili ilimpaz Q.Orazımbetov ta óz miynetlerinde J.Izbasqanov tuwralı: “Shayı kórkem sóz arqalı tábiyattıń hár bir aǵzası, múshesi menen sawbetlesedi, olardı óz shıǵarmasınıń súwretlew obyektine aylandıradı. Bunda shayı tábiyat kórinislerinen, tábiyattaǵı quslar, haywanatlar dúnyasınan gózzallıqtı, sulıwlıqtı kórgisi keledi. Kórkem ádebiyattıń kúshi de, wazıypası da, áne, usında”[5;13], - dep joqarı baha beredi. Al, A.Dosımbetova bolsa óz maqalasında: “J.Izbasqanov, ásirese, peyzaj lirikasınıń sheberi, “tábiyat jırshısı” sıpatında kózge túsip kelmekte. Shayıdıń túrlishe estetikalıq maqsetleri peyzajdıń kórkem shıǵarmadaǵı ózine tán ózinsheliklerin júzege shıǵarmaqta. Onıń qosıqları tereń lirizmge, sıǵasqan oy toǵanıslarına, obrazlı súwretlewlerge qurılǵan bolıp, qaraqalpaq poeziyasın ideya-tematikalıq, janrlıq hám formalıq jaqtan ele de bayıtı” – dep, onıń peyzajlıq lirikasınıń qanshelli dárejede sheberi ekenligin bahalap ketedi.